

Pedagogik mahorat va tarbiyachi shaxsining shakllanishi

Shahlo Nasriddinovna Pulatova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi faqatgina o'qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub'ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislarga ham qo'yilmoqda. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui xisoblanadi.

Kalit so'zlar: pedagogika, mahorat, kasb, faoliyat, talim, metodika, ta'lim texnologiyalari, pedagogik qobiliyat, tarbiyachi, bolalar

The concept of pedagogical skills and its role in the activity of an educator

Shahlo Nasriddinovna Pulatova
Bukhara International University

Abstract: Today, the requirement to have pedagogical skills is imposed not only on teachers, but also on any specialists working with a team and social subjects. The effectiveness and attractiveness of education is determined by the scientific potential, qualifications and skills of the pedagogical staff working in this process. Skills are a set of knowledge, skills and qualifications that allow a certain work, behavior or professional activity to be masterfully, skillfully, artistically organized.

Keywords: pedagogy, skills, profession, activity, education, methodology, educational technologies, pedagogical skills, educator, children

Zamonaviy ta'lim tizimi, avvalo, tarbiyachi shaxsiga yuqori talablar qo'yimoqda. Chunki tarbiyachi bolani nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki uning shaxsiy shakllanishiga, axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga, jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shadi. Bunda esa tarbiyachining pedagogik mahorati muhim o'rin tutadi. Pedagogik mahorat - bu faqatgina nazariy bilimlar emas, balki ularni amaliyotda to'g'ri va samarali qo'llay olish, psixologik yondashuv, muloqot madaniyati, individual ishlash qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik mahorat - bu pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari, ijtimoiy muhitga qarab ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llay olish qobiliyatidir. U quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kasbiy bilim va ko'nikmalar: pedagogik nazariya, metodika, psixologiya, didaktika bo'yicha puxta bilimlar;
2. Muloqot madaniyati: bola bilan ishonchli, samimiy aloqani yo'lga qo'yish, ota-ona va hamkasblar bilan hamkorlik qilish;
3. Tarbiyaviy metodlarni tanlash qobiliyati: vaziyatga qarab to'g'ri pedagogik usul va yondashuvni tanlash;
4. Innovatsion yondashuv: zamonaviy texnologiyalarni bilish va qo'llay olish;
5. Shaxsiy fazilatlar: sabr-toqat, mehribonlik, qat'iyat, mas'uliyat.

Tarbiyachi shaxsining shakllanishi

Tarbiyachi shaxsi, avvalo, jamiyat, oilaviy tarbiya, o'qish va amaliy tajriba orqali shakllanadi. Unga quyidagi omillar katta ta'sir ko'rsatadi:

- Ta'lim va tarbiya: oliy pedagogik ta'lim, ustozlardan olingan saboqlar, nazariy bilimlar asosida tarbiyachining kasbiy yo'nalishi aniqlanadi;
- Amaliy tajriba: tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilib boradi, o'zini doimiy ravishda takomillashtirib boradi;
- Muomala madaniyati: tarbiyachi har bir bola bilan alohida ishlashga tayyor bo'lishi, har birining dardini eshitishi va unga yo'l ko'rsatishi zarur;
- Kasbiy motivatsiya va fidoyilik: tarbiyachilik faqat ish emas, bu - ijtimoiy mas'uliyat, jamiyat oldidagi burchdir.

Pedagogik mahorat va shaxsiy shakllanish o'rtasidagi bog'liqlik

Pedagogik mahorat darajasi bevosita tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari, kasbiy e'tiqodi va hayotiy qarashlariga bog'liq. Shaxsiy sifatlar (mehribonlik, halollik, empatiya) bilan kasbiy mahorat uyg'unlashgan taqdirdagina chinakam samarali tarbiyachi shakllanadi. Shuningdek, tarbiyachi o'z ustida ishlamas ekan, u mahorat jihatdan ham, shaxs sifatida ham o'sish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Ayni paytda tarbiyachining o'zini anglash darajasi ham katta ahamiyatga ega. U o'zining kasbiy faoliyatidagi kamchiliklarni tan olib, ularni bartaraf etishga intilgan taqdirdagina haqiqiy o'sishga erishadi. Shaxsiy shakllanish bu - doimiy jarayon bo'lib, u o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishni, yangilikka ochiqlikni va o'z ustida ishlashni talab etadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning

bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'quvchilarda ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash zarur. Bu pedagog kadrlarimiz oldida turgan eng muhim vazifadir. Pedagogning ijodiy potentsiali uning o'z ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo'lishida, qobiliyati va kasbiy malakasini oshirishida, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o'quvchi va talabalarni komillik sari mohirlik bilan yetaklay olishida ko'rinadi. Kreativlik (lot., ing. "create"-yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor)-individdning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlari talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish, bolalar shaxsini xurmat kilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini, bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalasbga safarbar qila oladigan odamgina baqiiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish - pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, tarbiyachiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi. Eng muhimi - tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat - bu tarbiyachi faoliyatining yadro elementidir. U bolalar bilan ishlashda faqat bilim berish emas, balki ularning qalbiga yo'l topish, axloqiy qadriyatlarni singdirish, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiyachi shaxsi esa faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy tajriba, muloqot, fidoyilik, kasbga sadoqat kabi jihatlar asosida shakllanadi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni, ayniqsa, maktabgacha ta'lim, maktab internatlari yoki ijtimoiy noqulay sharoitdagi bolalar bilan ishlashda pedagogik mahorat va shaxsiy yetuklikni talab etadi. Shu boisdan, har bir tarbiyachi o'zini pedagogik va shaxsiy jihatdan doimiy takomillashtirib borishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni

2. Sh.M Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. T.-2016y.
3. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.“Ta’lim to’g’risida ” gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi./Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent 2022yil
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’grisida”gi.22,12.2020 yildagi 802-son.
6. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Qayumova, N.M.Azamova “”Maktabgacha pedagogika.Darslik 2019 yil.
7. A. Xoliqov Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil.
8. H. T.Omonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.Toshkent 2009-yil.
9. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Особенности формирования коммуникативной компетентности у воспитателей дошкольной образовательной организации. Вестник интегративной психологии . г . Ярославль, 2023 Выпуск №30 . часть 1 -С. 38-41
10. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kom-munikativ kompetentlik omillari shakllanishining metodologiyasi. Buxoro Davlat Universiteti. Psixologiya ilmiy jurnal. 4-son 2023 yil № 064916. -B.208-212
11. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Kreativ kompetentlik-mak-tabgacha ta’lim tarbiyachi-lari kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim omil sifatida. Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Maktabgacha ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari”. 17 noyabr,2023 yil. -B.171-173
12. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. MTT tarbiyachilari kommunikativ kompetentligining ilmiy-nazariy asoslari. Buxoro Davlat Pedagogika Instituti. Respublika ilmiy-amaliy anjumani to’plami. “Zamonaviy psixologik tadqiqotlar integratsiyasi” 2023 yil , 24-25 noyabr. -B.298-301
13. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Психологические факторы формирования творческого мышления будущей воспитателей дошкольной образовательной организации. Психология XXI столетия // Сб. научных статей по материалам международной конференции (Самарканд, 15-16 марта 2024 г) г. Ярославль, МАПН- 2024. - С.29-32
14. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Ijtimoiy kompetentlik-maktabga-cha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish omili sifatida. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institut. Ilmiy axborotnomasi №2(6) 2024 - B.223-226.

15. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuvni shakllantirish. "Harbiy psixologiya" Zamonaviy yonda-shuvlar, muammolar va takliflar" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Samarqand shahri 24 may,2024 yil .—B. 68-70

16. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish". Proceedings of International Conference on Education Discoveries and Humanities 2024. Volume 3,Issue 6,June 2024. -Page. 207-210

17. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy -psixologik kompetentlik omillarini tadqiq qilishning emperik asoslari. Buxoro davlat universiteti. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2024 №5 -B.198-201

18. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Методологические основы исследования факторов социально-психологичес-кой компетентности у воспитателей дошкольных образовательных учреж-дениях. Вестник интегративной психологии. г. Ярославль, 2024 .Выпуск 33 часть 1. -С.21-25

19. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy salohiyat darajasi va kompetentligini rivojlantirish. Buxoro Davlat Universiteti "Psixologik tadqiqotlarda muammolar,yutuqlar,innovatsiyalar". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil ,22-noyabr -B.480-482

20. Aminova Gulnoza Nasritdinovna. Психологические принципы развития коммуникативной компетентности у воспитателей дошкольных образовательных организаций. (2025). Международная конференция по научным исследованиям в области естественных и социальных наук , 179-186.